

**MAKTABGACHA YOSHDAGI YOSHDAGI BOLALARDA DISLALIYA
MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH****Rasulova Madinabonu Ravshanjon qizi***Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus**pedagogika yo'nalishi talabasi**rasulovam2910@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda dislaliya muammosi kuzatilishi, ya'ni bola ayrim tovushlarni to'g'ri aytolmaydi, aralashtirib yuboradi yoki umuman ishlatmaydi. Dislalik bolalarning ijtimoiy moslashuvi yechimlarining pedagogik korreksion va rivojlanishdagi o'zgarishlarni qisqacha tahlil etildi.

Kalit so'zlar: dislaliya, nutq nuqsonlari, maktabgacha yosh, logopediya, fonetik-fonematik rivojlanish, artikulyatsiya, korreksiya, nutq terapiyasi.

АННОТАЦИЯ: В статье отмечается проблема дислалии у детей дошкольного возраста, то есть ребенок не может правильно произносить, путать или вообще не использовать определенные звуки. Проведен краткий анализ педагогических коррекционно-развивающих изменений решений социальной адаптации детей с дислалией.

Ключевые слова: дислалия, дефекты речи, дошкольный возраст, логопедия, фонетико-фонематическое развитие, артикуляция, коррекция, логопедия.

ANNOTATION: In the article, the problem of dyslalia is observed in preschool children, that is, the child cannot correctly say, confuse or use certain sounds at all. A brief analysis of the pedagogical correction and changes in development of the solutions of social adaptation of dyslalic children was carried out.

Keywords: dyslalia, speech defects, preschool age, speech therapy, speech, phonetic-phonemic development, articulation, correction.

KIRISH

Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir. 4—5 yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlar talaffuzi til normadagiga yaqinlashgan bo'ladi. Ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qo'llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishining yuzaga kelishiga sabab boiadi. Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis — buzilish, lalia — nutq degan ma'noni anglatadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq rivojlanishi masalasi bolalar shaxsiyatining shakllanishida muhim

omillardan biri hisoblanadi. Nutqdagi nuqsonlar, ayniqsa dislaliya, bolaning nafaqat muloqotini, balki kognetif rivojlanishini ham orqaga surishi mumkin. Dislaliya maktabgacha yoshda ko`p uchraydigan nutq buzilishi hisoblanib, unda bola nutq organlari anatomik jihatdan sog`lom bo`lsa-da, ayrim tovushlarni to`g`ri talaffuz qila olmaydi. Dislaliya – bu bolaning nutq apparati organlari normal holatda bo`lganida ham ovoz, tovush va artikulyatsiyadagi buzilishlar bilan ifodalanuvchi nutq nuqsonidir. U ko`pincha fonematik rivojlanish nuqsonlari bilan bog`liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dislaliya – logopediyada eng ko`p qo`yiladigan tashxislardan biri. U quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Mexanik (organik) dislaliya – nutq apparatining anatomic nuqsonlari bilan bog`liq.

2. Funksional dislaliya – nutq organlari tuzilishi sog`lom bo`lgan holda nutq muhiti, fonematik eshitish, yoki artikulyatsiya harakatlarining rivojlanishida kamchilik tufayli yuzaga keladi.

“Maktabgacha yoshda dislaliyaning namoyon bo`lishi”

3–6 yoshli bolalarda dislaliya quyidagicha ifodalanadi:

Ayrim tovushlarni burin yoki noto`g`ri talaffuz qilish (“r” o`rniga “l” , “sh” o`rniga “s”)

Dislaliya belgilari:

-Tovushlarni so`z ichida tushirib qoldirish yoki almashtirish

-Nutqning umumiy ritmi va melodikasida buzilish

-Fonetamik eshitishda qiyinchilik

-Bola o`xshash tovushlarni farqlay olmaydi

-Ayrim hollarda nutqning tushunarsizligi va ijtimoiy muloqotda qiyinchilik

Dislaliya sabablari:

Funksional sabablari: nutq muhitining yetarli emasligi, kattalarning noto`g`ri nutqi. Biologik omillar: markaziy asab tizimidagi kichik funksional buzilishlar.

Organik sabablar: tish qatorining noto`g`ri joylashishi, jag` va til shaklidagi nuqsonlar.

Psixologik omillar: bolaning muloqotga qiziqishi pastligi.

Psixologik omillar: Bolaning uyalishi, o`z-o`zini to`g`ri ifoda qila olmasligi.

Maktabgacha yoshda tuzatish ishlari:

1. Logoped mashg`ulotlari – tovushlarni aytish uchun maxsus artikulyatsion mashqlar.

2. Boshqarilgan nutq o`yinlari – topishmoq, she`r, qo`shiq va rolli o`yinli orqali to`g`ri talaffuzni shakllantirish.

3. Ota- onalar bilan ish – uyda bola bilan mashq qilish, kitob o`qib berish, unga nutqni to`g`ri namoyon etish.

4. Tovush chiqarish mashqlari – ayniqsa “r”, “sh”, “l” kabi qiyin tovushlar uchun maxsus artikulyatsiya gimnastikasi.

5. Logopedik ritmika – qo`shiq, she`r va harakatlarni uyg`ublashtirish orqali nutq motorikasini kuchaytirish.

Dislaliyani bartaraf etish yo`llari:

1. Logopedik mashg`ulotlar:

Artikulyatsiya gimnastikasi orqali nutq apparatini mashq qildirish.

Tovushlarni to`g`ri qo`yish va avtomatlashtirish mashqlari.

Fonetamik eshitishni rivojlantiruvchi o`yinlar.

2. Ilg`or pedagogik texnologiyalar:

Multimedia, interaktiv o`yinlardan foydalanish.

Guruhdagi mashg`ulotlar orqali ijtimoiy ko`nikmalarni rivojlantirish.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik:

Bolaning uyda ham muntazam mashq qilishi uchun tavsiyalar.

Kundalik hayotda to`g`ri nutq muhitini ta`minlash.

Dislaliyani tuzatish uchun o`yin va mashqlar:

1. Artikulyatsion gimnastika (til va lab mashqlari)

Bu mashqlar tovushlarni to`g`ri chiqarish uchun til va lab mushaklarini harakatchan qiladi.

“ot mashqi” – tilni “to`rtyoqqa ot” dek tishlar ortiga urdirish: ta-ta-ta-ta.

“Soat mashqi” – tilni og`iz ichida chapdan o`ngga harakatlantirish.

“Sham yoqish” – bola shamni puflab o`chiradi (nafas mashqi).

“Lolipop” – til bilan yuqori labni aylantirish.

2. Tovushni farqlash mashqlari:

Bolada fonematik eshitishni rivojlantiradi.

“Qaysi tovushni eshitding?” – tarbiyachi “s-s-s”, “sh-sh-sh”, “r-r-r” deydi, bola esa qaysi tovush ekanini topadi.

“Quloq solib top” – so`zlarni aytish: (suv – shuv, ora – ola), bola qaysi to`g`ri ekanini tanlaydi.

3. Tovush qo`yish va avtomatizatsiya mashqlari

Qiyin tovushlar («r», «sh», «l», «s») uchun qo`llanadi.

“So`z boshida tovush” – roza, raketa, rom.

“So`z o`rtasida tovush” – baraban, surat, parda.

“So`z oxirida tovush” – bar, sigir, shamol.

“Tovushni ovqat top!” – kartochkalarda turli rasmlar (sigir, romol, limon). Bola qaysi so`zda “l” borligini aytadi.

4. Nutqiy o`yinlar:

Bolada zavq uyg`otadi va nutqni faol qiladi.

“Topishmoq aytaman” – “Og‘zi bor, tili yo‘q – ... (qulf)” kabi topishmoqlarni aytib, bola javob qidiradi.

“Tovush ovchi” – xonaning ichida “S” tovushi bilan boshlanadigan buyumlarni topib aytish.

“Kim tez?” – bir tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni tez-tez aytish. Masalan: roza, raketa, richag....

5. Hikoya va rivoyat tuzish mashqlari

Bog‘liq nutqni rivojlantiradi.

“Rasmdan hikoya” – bolaga rasm beriladi, u esa undan qisqa hikoya tuzadi.

“Ertakni davom ettir” – tarbiyachi ertakdan bir parcha o‘qiydi, bola uni davom ettiradi.

6. Logopedik ritmika

Harakat + nutq uyg‘unligidagi mashqlar.

Qo‘shiq aytishda har bir so‘zni qo‘l bilan urish.

She’rni aytishda tovushni kuchaytirib chiqarish.

Bu o‘yin va mashqlar logoped bilan mashg‘ulotlarda ham, uyda ota-ona bilan ham bajarilishi mumkin. Eng muhimi — bola uchun qiziqarli shaklda olib borish.

XULOSA

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini kengaytirish va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini boshdan kechiradi. Ayni paytda ko‘plab bolalarda uchraydigan nutq buzilishlaridan biri bu — dislaliyadir. Dislaliya bolaning fonetik-fonematik rivojlanishiga, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, shuningdek, umumiy muloqot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bu muammoni o‘z vaqtida aniqlash va samarali tuzatish choralari ko‘rish muhim hisoblanadi. Dislaliyani tuzatish jarayonida artikulyatsion gimnastika, tovushni farqlash mashqlari, tovushni qo‘yish va avtomatizatsiya, nutqiy o‘yinlar, hikoya va rivoyat tuzish hamda logopedik ritmika mashqlari asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu mashqlar bolaning nafaqat nutq apparatini mustahkamlaydi, balki fonematik eshitish qobiliyatini, diqqat va xotira jarayonlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, o‘yin elementlari bolada zavq uyg‘otib, mashg‘ulotni samarali va qiziqarli qiladi. Ota-ona va pedagoglarning faol ishtiroki ham bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Chunki bola uy sharoitida ham mashqlarni muntazam takrorlab borishi lozim. Shundagina logoped mashg‘ulotlari kuchli samara beradi. Umuman olganda, dislaliyalı bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar tizimli va izchil tashkil etilganda, ular tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘zlashtiradi, bog‘liq nutqi shakllanadi va maktab ta’limiga puxta tayyorlanadi. Shuningdek, nutqdagi bunday yutuqlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy muhitga faol kirib borishini ta’minlaydi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi dislaliyalı bolalarning nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda

o'yin va mashqlar eng samarali vosita hisoblanadi. Ular bolaning rivojlanishida nafaqat nutqiy, balki psixologik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Shu sababli dislaliya tashxisi qo'yilgan bolalar bilan ishlashda logoped, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligi, shuningdek, o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish eng to'g'ri yondashuv bo'lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Ayupova. M Logopediya
2. Ubaydullayeva. D Dislaliya va uning sabablari
3. ГВ ФАДИНА, ЕЮ ФИЛАТОВАЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ РАБОТА ПО ПРЕОДОЛЕНИЮ ДИСЛАЛИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
4. Узбекская Википедия
5. Daryo